

**Lolaxon Yo'Ichiboyeva**  
**Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi**  
**Xolmatova Sahodat**  
**Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## **FONETIKA ASOSLARINI O'RGANISH METODIKASI**

**Tayanch so'zlar:** Fonetik bilim, tovush, harf, unli tovush, undosh tovush, jarangli va jarangsiz undoshlar, grafik malaka, bo'g'in, tekshiruvchi so'z, tekshiriluvchi so'z, urg'u, bo'g'in ko'chirish; grafika, fonetika va imlo.

Kichik yoshdagi o'quvchilar og'zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta:

a) fonetik bilimga asoslangan holda o'qish va yozishga o'rgatiladi.

b) fonetik bilim so'zni to'g'ri talaffuz qilish asosini tashkil etadi.

v) fonetik bilim morfologik va so'z yasashiga oid bilimlar bilan birga o'quvchilarda qator orfografik malakalarni shakllantirish uchun zamin bo'ladi.

g) fonetik bilim gapning ohangiga ko'ra to'g'ri aytish, urg'u, gap uchun zarur.

d) so'zning tovush tomonini bilish, uning ma'nosini tushunish va nutqda ongli qo'llash uchun muhimdir.

Dasturga muvofiq boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetik-grafik ko'nikmalarni egallaydilar: tovushlar va harflar, unli undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, so'zni bo'g'inlarga bo'lish, urg'uli bo'g'inni ajratish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Bolalar maktabga kelgunga qadar ham so'zlarni bo'g'inlarga bo'lishini, nutqning tovush qurilishini amaliy o'zlashtiradilar, ammo ular maxsus o'qigunlariga qadar so'zdagi tovushlarni to'g'ri va izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. Maqsadga erishish uchun izchil ish olib borish lozim bo'ladi.

Tovush murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda unga ta'rif berilmaydi, ammo amaliy ishlar olib boriladi. Bunda yetakchi usul so'zdagi tovushlarning talaffuzi, so'zning leksik ma'nosi, so'zdagi tovushlarning tarkibiga bog'liqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan: aka-uka, kul-gul.

So'zning tovush tarkibi ustida ishlash savod o'rgatish davridayoq boshlanadi. Ular so'zni tovush tomondan tahlil qilishga o'rganadi. Masalan: kelso'zida k, e, l; yomg'ir so'zida y, o, m, g', i, r tovushlari borligini aytishlari zarur. Bu esa so'zdagi harflarni tushirib qoldirmay yozish va to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi. So'zning tovush tarkibi ustida ishlash 2-3-4 sinflarda ham davom ettiriladi.

Tovushlar 2 guruhga bo'linadi: unli va undosh tovushlar. Uni o'quvchilarga tushuntirishda quyidagi belgilar hisobga olinadi:

1. Talaffuz qilinish usuli.

2. Ovoz va shovqinning ishtiroki
3. Bo'g'in hosil qilish xususiyati.

Bu belgilarni o'quvchilar yodlashiga yo'l qo'yilmaydi. U belgilar kuzatish usuli bilan o'rgatib boriladi.

O'zbek yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi, tovush yozuvda harf bilan ifodalanadi.

- 1- sinf o'quvchilari quyidagilarni bilishlari lozim.
1. Tovushlarni talaffuz qilamiz va eshitamiz.
2. Harflarni ko'ramiz va yozamiz.
3. J xarfi 2 tovushni ifodalaydi.

1- sinfda jarangli va jarangsiz undosh tovushlar o'rganilganda kuzatish metodidan foydalaniladi. Kuzatishda o'quvchilar faol qatnashishi lozim. Buning uchun faqat bir undosh tovush bilan farqlanadigan faqir-paqir, dil-til kabi so'zlar taqqoslanib, b-p, d-g undoshlarining farqi amaliy tushuntiriladi. Xuddi shu metodda jufti bor va jufti yo'q jarangli va jarangsiz tovushlar qiyoslanib, tayyorlangan ko'rgazma o'quvchilar diqqatiga havola qilinadi.

Jarangli undoshlar: b, v, g, d, z, j, j, g' y, l, m, n, r, ng Jarangsiz undoshlar: p, f, k, t, s, ch, sh, x, q, h

Bolalar jufti yo'q jarangli undoshlar so'zning oxirida kelganda ham talaffuzi yozilishiga mos kelishini bilib olishlari yetarli. Jufti bor jarangli undoshlar so'z oxirida kelganda bunday moslik bo'lmaydi. Demak, o'quvchilar undosh tovushlarning imlosi yuzasidan quyidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilishi kerak.

1. Jufti bor jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni ajratish.
2. So'z oxirida kelgan jufti bor jarangli undosh tovushning jarangsiz juftieshinishini, shuning uchun bunday so'zni tekshirish kerakligini.
3. Undosh tovush unli tovushdan oldin kelganda boshqa tovush bilan almashmasligini.
4. Tekshiruvchi va tekshiriluvchi so'zdagi undosh harfni taqqoslash (kitobi-kitob).

Bo'g'inning ta'rifi boshlang'ich sinflarda berilmaydi. O'quvchilar savod o'rgatish davrida so'zda nechta unli bo'lsa shuncha bo'g'in bo'lishini bilib oladilar.

So'zlarni bo'g'inga to'g'ri ajrata oladigan o'quvchi imlo jihatidan to'g'ri yoza oladi. Buning uchun muntazam ish olib borilishi kerak. Mashqlar bajarilish jarayonida:

1. Bir harfni oldingi satrda qoldirib bo'lmaydi va keyingi satrga ham o'tkazilmaydi.
2. *ng, ch, sh* harf birikmali so'zlarni bo'g'inga ko'chirish kabi o'rinlarga ko'proq e'tibor berish kerak bo'ladi. Bunda urg'uning oxirgi bo'g'inga tushishi, qo'shimcha qo'shilganda urg'uning ko'chishi, ba'zi so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inda bo'lmasligi ham mumkinligi aytilib, turli mashqlar yordamida mustahkamlanadi. Urg'u bilan 2- sinfda tanishtiriladi. Urg'u haqida talabalar bilan suhbat o'tkaziladi.